

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

**Namangan viloyati statistika boshqarmasiga 2019 yilning yanvar-iyul oylarida jismoniy va yuridik shaxlardan 159 ta murojaatlar kelib tushgan.**

**Shu jumladan:**



**Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi hamda ishonch telefoni orqali kelib tushgan og'zaki murojaatlar**

**11**



**Boshqarmaning elektron pochta orqali kelib tushgan elektron murojaatlar**

**2**



**To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar**

**146**



# Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)



Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:

## KTYaDRga oid ma'lumotlar



*59 tasi (37,1 foiz) korxon va tashkilotlarining yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan.*

## Ish staji, ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar



*13 tasi (8,2 foiz) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan.*

## Statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish



*31 tasi (19,5 foiz) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan.*

## Topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan



*23 tasi (14,5 foiz) topshirilgan hisobotida nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan.*


## Boshqa masalalar



*33 tasi (20,7%) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan.*




# Murojaatlarni ko'rib chiqish holati




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning 121 tasiga chora ko'rildi, 37 tasi tushuntirildi, 1 tasi ko'rib chiqish jarayonida, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha:

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 27.0 foizi (43 ta) jismoniy shaxslar va 73.0 foizi (116 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.







Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi Namangan shahri 92 ta (o'tgan yilning shu davrida 107 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Namangan tumanidan 10 ta (12 ta), Chust tumanidan 9 ta (5 ta), Pop tumanidan 7 ta (5 ta), To'raqo'rg'on tumanidan 7 ta (4 ta), Norin tumanidan 6 ta (5 ta), Yangiqo'rg'on tumanidan 6 ta (8 ta), Kosonsoy tumanidan 5 ta (1 ta), Mingbuloq tumanidan 4 ta (4 ta), Uychi tumanidan 4 ta (4 ta), boshqa viloyatlardan 4 ta (4 ta), Uchqo'rg'on tumanidan 3 ta (2 ta), Chortoq tumanidan 1 ta (3 ta), boshqa respublikadan 1 ta (1 ta) murojaatlar kelib tushgan.



# NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Viloyat statistika boshqarmasi  
Jismoniya va yuridik shaxslarning  
murojaatlari bilan ishlash va ijro  
intizomi nazorati bo'limi.**

**Nashr uchun mas'ul: A.Abdayev**

(69) 227-85-06

*e-mail: namstat@umail.uz*

*Manzil: 160133, Namangan sh,  
N.Nomongoniy ko'chasi, 14-uy.*

## **ESLATIB O'TAMIZ:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik ko'rsatkich yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi?

Unday bo'lsa, quyidagi raqamlarga murojaat eting:



## **Ishonch telefonlari:**

(71) 230-84-84, (69) 227-84-84



**Viloyat statistika  
boshqarmasi rahbariyatiga  
bevosita murojaat etish:**

(69) 227-85-08